O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Dildora DJAMALOVA

FORTEPIANO

An’anaviy xonandalik va an’anaviy cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishlari uchun
DARSLIK

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2018

KBK 85.954.2
D 45

Djamalova Dildora.

Fortepiano. An’anaviy xonandalik va an’anaviy cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. – T., 2018. – 144 b.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 28 iyundagi 434-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan

Mas’ul muharrir:
Maxfuza KAZAKBAYEVA – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti

Taqrizchilar:
Inna ABDULLAYEVA – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori v.b.

Rustam ABDULLAYEV – O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, professor

Mazkur darslik O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5150600 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) va 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining 1-kursida tahsil olayotgan talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shu ijrochilik yo‘nalishi uchun “Fortepiano” fanidan maxsus yaratilgan ilk o‘quv adabiyotidir. Darslikning didaktik ma’lumotlar va asarlar notasidan boshqa ta’lim yo‘nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Darslik umumiy fortepiano kursi bo‘yicha dars berishni boshlayotgan yosh mutaxassislarga ham dastlabki uslubiy yordam vazifasini bajaradi.

Настоящий учебник является первой специально созданной учебной литературой для направлений бакалавриата Государственной консерватории Узбекистана 5150600 – Вокальное искусство (традиционное пение) и 5150700 – Инструментальное исполнительство (традиционные инструменты) по курсу “Фортепиано” для студентов 1-курса этих исполнительских направлений. Дидактическими материалами и нотными примерами учебника могут также пользоваться студенты других направлений.

Учебник также призван оказать существенную методическую помощь молодым специалистам, начинающим преподавание курса общего фортепиано.

This textbook is first specially created by scholastic literature for directions bachelors of the State conservatory Uzbekistan 5150600 – Vocal art (traditional singing) and 5150700 - Instrumental performing (the traditional instruments) on course "Pianoforte" for student 1-course these performings directions. The didactic materials and music example of the textbook can also use the students of the other directions.

The Textbook is also called to render the essential methodical help young specialist, beginning teaching course general pianoforte.

KBK 85.954.2
UO‘K 780.616.432

© “Musiqa” nashriyoti, 2018.
© D.A.Djamalova, 2018.

ISBN 978-9943-5090-2-3

1- DARS. KIRISH.
FORTEPIANO – UMUMINSONIY CHOLG‘U SOZI

Aziz talabalar! Siz endi oliy ta’lim muassasasi talabasi bo‘ldingiz, oldingizda yangi orzu-niyatlar, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan mutaxassis bo‘lish istagi bor, albatta. Respublikamizning turli sohalarida bo‘lgani kabi musiqa ta’limidagi o‘zgarishlar “Vokal san’ati” va “Cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishlarining maxsus fortepiano (organ) cholg‘usi bo‘lmagan boshqa ixtisosliklari uchun muhim fan hisoblangan – “Fortepiano” fani bo‘yicha ham yangi avlod darsliklari va qo‘llanmalar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Bugungi kunga qadar aynan oliy ta’lim muassasalari talabalariga mo‘ljallangan fortepiano ijrochiligi bo‘yicha adabiyotlarning yetarli yaratilmaganligi sababli, ijrochilikni yanada chuqur o‘zlashtirishga qaratilgan yangi o‘quv dasturi mavzulari asosida tizimga solingan o‘quv adabiyotiga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Qo‘lingizdagi mazkur “Fortepiano” darsligi aynan sizlar tahsil olayotgan 5150600 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) va 5150700 - Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standarti va fanning o‘quv dasturi asosida o‘quv rejasida belgilangan soatlar hajmida didaktik talablarga mos ravishda yaratilgan. Ushbu darslik mazmunida zamonaviy pedagogik usullar, qarashlar, asarlarni o‘rganishning muhim jihatlari, shogirdlarga dars o‘tish jarayonida erishilgan samarali natijalar, shuningdek, yillar mobaynida to‘plangan tajribalar o‘zining ifodasini topgan.

Fortepiano cholg‘usida o‘zlashtirilgan boshlang‘ich ijrochilik ko‘nikmalariga asoslanib, konservatoriya bosqichining 1-kursida ijro mahorati sirlarini “oddiydan-murakkabga” tamoyili asosida ustozlar mashg‘ulotlar olib boradilar. Polifonik asarlar, ko‘povozlik va arxitektonik ta’lim, yirik shakldagi asarlarda shakl hissi, keng hajmlilik va musiqiy obrazlarning qarama-qarshiligi borasidagi tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishingiz lozim. Ijrochilikni mukammal o‘zlashtirish bilan birga, unga tegishli bo‘lgan boshqa bilimlarni ham mustaqil o‘rganib olishingizga, ko‘nikma va malakalaringizni shakllantirishga, kerakli o‘quv materialini mustaqil izlash va topishingizga hamda keyingi amaliy faoliyatingizda qo‘llashni o‘rgatishga, ijodiy qobiliyatlaringizni rivojlantirishga yo‘naltirilgandir.

Mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida sizlar Davlat ta’lim standartida belgilangan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishingiz nazarda tutiladi, xususan:

– nota yozuvlarni erkin o‘qish, eshitganlarini chala bilish va tonalliklar bo‘ylab ko‘chirish;

– jahon va O‘zbekiston kompozitorlari fortepiano adabiyotlarini bilish va ulardan foydalana olish;

– turli xil uslub, janr, zamonlarga oid asarlarni ijro etish;

– kontsert dasturlarini sahnada namoyish qilish koʻnikmalariga ega boʻlishingiz kerak.

“Fortepiano” fani barcha ijrochilik ixtisosliklari uchun umumkasbiy fan hisoblanib, u – Garmoniya, Solfedjio, Musiqiy asarlar tahlili kabilar bilan oʻzaro uzviy bogʻliqdir. Oʻzlashtirilgan ijrochilik koʻnikmalari, ularni yanada keng va chuqurroq oʻrganishga ma’lum darajada koʻmak boʻladi.

Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining har bir 1-kurs talabasi oʻquv jarayonida turli davrlarda yaratilgan, turli janr va uslublarga tegishli boʻlgan musiqiy asarlar ijro etishi lozim, shu bilan birga fortepiano texnikasining barcha turlarini oʻzlashtirmogʻi kerak. Shu sababli har bir semestrda oraliq hamda yakuniy reyting nazorati sinovlari uchun aniq ijrochilik dasturi koʻrsatiladi. Ma’lum bir asarni chuqur oʻrganish, shu janr va uslubda yaratilgan boshqacha asarlar bilan tanishib chiqishni ham nazarda tutadi.

Mazkur fanni oʻzlashtirish uchun oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻzlashtirishda boshqa darslik, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar, elektron materiallar, zarur boʻlganda sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Xorijiy ilgʻor pedagogik texnologiyalar va nota adabiyotlaridan unumli foydalaniladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta’lim resurslaridan, ta’lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamgʻarmasidan, repetitoriylardan, oʻquv laboratoriyalari, ovoz yozuv studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Shuningdek, mazkur fanni oʻzlashtirishda ta’limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy oʻquv jarayonida unumli qoʻllaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, “Internet”, “Ziyonet” kabi axborot tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus oʻquv adabiyotlari – darslik, oʻquv qoʻllanma, uslubiy qoʻllanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

1-kurs mobaynida sizga majburiy ijro dasturi hisoblangan asarlar bilan cheklanib qolmay, dunyoqarashingizni muntazam kengaytirib borishingiz uchun boshqa vazifalarni ham mustaqil bajarishingiz talab etiladi. Reyting nazoratlari yoki kontsertda tinglovchi-tomoshabinlar oldida chalish uchun ma’lum bir kompozitorning asari ijrosini oʻzlashtirayotgan davringizda uning boshqa janrlardagi asarlarini ham tinglab, tahlil qilishingiz kerak. Bunday mustaqil izlanish kompozitor uslubini oʻzingizga singdirib olishingizga katta yordam beradi. Misol tariqasida: agar sizlar V.A.Mosartning darslikda berilgan “Menuet”ini oʻrganayotgan boʻlsangiz, shu kompozitorning boshqa asarlari bilan ham yaqindan tanishishingiz yaxshi natija beradi. **Darslikka jahon kompozitorlarining oʻnlab**

mashhur asarlari notasi chet ellarda chop etilgan adabiyotlardan ko‘chirib kiritildi.

Alohida ta’kidlash joizki, xuddi maxsus fortepiano yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar singari sizlar ham imkon qadar chuqur bilimlarga ega bo‘lishingiz zarur. Shu sababli ushbu darslikka bilimlaringizni mustahkamlash va chuqurlashtirish uchun tuzilgan **testlar va krossvordlar** ham kiritildi.

Shuningdek, darslik ilovalarida dastlabki ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga, nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan - gammalar, akkord va arpedjiolar (1-ilova); testlar va krossvordlar javoblari (2-ilova); **eng iqtidorli talabalar uchun** jahon fortepiano pedagogikasi repertuaridan sonatinalar hamda O‘zbekiston yosh kompozitorlarining milliy kolorit bilan sug‘orilgan sonatinalari (3-ilova*) notasi berildi. Ularni ustozingiz bilan darsma-dars tanlab, fortepianoda o‘z ijrochilik mahoratingizni oshirishingiz mumkin.

Aziz talabalar! Qo‘lingizdagi ushbu darslik sizlarning fortepiano cholg‘usida ijro san’ati haqidagi bilimlaringizni yanada oshirishga hamda ijrochilik mahoratini yuksaltirishga xizmat qiladi, degan umiddaman.

**) Izoh: 3-ilovadagi sonatinalarning nota matni ko‘p sahifali bo‘lganligi uchun ular darslikka ilova qilingan kompakt-diskga joylashtirildi.*

Ijro dasturiga kiritish uchun tavsiya etilayotgan asarlar

1-kurs mobaynida 7-8 ta asarning mukammal ijrosini tayyorlashingiz kerak bo‘ladi. Bular: murakkab bo‘lmagan gamma, akkord va arpedjiolar, etyudlar, fortepiano uchun qayta ishlangan xalq kuylari, maxsus yaratilgan kichik va yirik janrlardagi original asarlar bo‘lishi lozim. Quyida nomlari sanab o‘tilgan namunalardan foydalangan holda, albatta o‘zingizning ijro imkoniyatlaringizni inobatga olib, ustoz bilan har bir semestrga alohida-alohida repertuar tanlang va ijrochilik mahoratingizni oshiring.

1. Barmoqlarni mustahkamlash va ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun darslarda ko‘rsatilgan mashqlar va quyidagi kichik kuy namunalari:

gamma, akkord va arpedjiolar, “Chitti gul” (o‘zbek xalq kuyi), “Kuz” (Belorus xalq qo‘shig‘i) kabi murakkab bo‘lmagan kuylar.

2. Etyudlar: 4-5 ta.

3. Fortepiano uchun qayta ishlangan xalq kuylari, maxsus yaratilgan kichik va yirik janrlardagi original asarlar:

1. “Olmacha anor”, o‘zbek xalq kuyi (bir necha variantda).
2. “Barabanchi”, latish xalq qo‘shig‘i.
3. “Men skripkada chalaman”, A.Filippenko.
4. “Visla”, polyak xalq qo‘shig‘i.
5. “Katta bug‘u”, fransuz xalq qo‘shig‘i.

6. “Olma”, K.Abdullayev.
7. “Archa bayrami”, I.Akbarov.
8. “Qashqarcha”, o‘zbek xalq kuyi.
9. “Do‘loncha”, o‘zbek xalq kuyi.
10. “Hay, yor-yor”, o‘zbek xalq kuyi.
11. “Gullola”, o‘zbek xalq kuyi.
12. “Qorasoch”, o‘zbek xalq kuyi.
13. “Jamalagim”, o‘zbek xalq kuyi.
14. “Chamanda gul”, o‘zbek xalq kuyi.
15. “Bilak uzuk”, o‘zbek xalq kuyi.
16. “Omon yor”, o‘zbek xalq kuyi.
17. “Gullola”, o‘zbek xalq kuyi.
18. “Yallama yorim”, o‘zbek xalq kuyi.
19. “Chaman ichra”, o‘zbek xalq kuyi.
20. “Nimalar devdim sizga...”, o‘zbek xalq kuyi.
21. “Daryo toshqin”, o‘zbek xalq kuyi.
22. “Ha, do‘rsi”, o‘zbek xalq kuyi.
23. “Raqs”, A.Gedike.
24. “Menuet”, V.Mosart (Volfgang Mosart nota daftaridan).
25. “Menuet”, V.A.Mosart.
26. “Papageno ariyasi”, V.A.Mosart (“Sehrli nay” operasidan).
27. “Kuy”, L.Betxoven (5-simfoniyadan parcha).
28. “Variatsiyalar”, V.A.Mosart.
29. “Variatsiyalar”, F.Kulau.
30. “Sonatina”, A.Andre.
31. “Sonatina”, R.Reyneke.
32. “Sonatina”, N.Inoyatova.
33. “Sonatina”, Sh.Ahmedova.
34. “Sonatina”, F.Xoliqova.

Fortepiano – umuminsoniy cholg‘u sozi

Musiqa san’atida Fortepano ijrochiligi eng ommalashgan turlardan biri sanaladi. Har bir xalqning o‘z milliy cholg‘u sozlari bo‘lishi barchaga ma’lum. Bugungi kunda dunyoning barcha xalqlari orasida eng ommalashgan **umuminsoniy cholg‘u sozlari** ham mavjud. Bulardan biri – **fortepiano** cholg‘usidir. Ushbu cholg‘u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O‘zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, fortepiano san’ati **Klassisizm** davrida paydo bo‘lib, shakllana boshlagan va fortepiano cholg‘usi yaratilgan. I.S.Bax va uning o‘g‘illari, shogirdlari klavir musiqasi uchun birinchi namunalarni yaratdilar. Gaydn, Mosart, Betxovenlarning fortepiano ijodi bu cholg‘uni yuksaklarga ko‘tarilishida va ommalashishida muhim o‘rin tutdi. London va Vena maktablari

shakllandi. Klementi va Gummel ijodi ravnaq topdi. O‘z navbatida Parij maktabi ham paydo bo‘lib, Kalkbrener va Talberg ijod namunalari tarqaldi. Shuningdek, Cherni ijrochilik mahorati maktabi shakllandi va bugungi kunda ham ushbu namunalar fortepiano ijrochiligining asosiy maktabi sanaladi.

Romantizm davrida ham fortepiano ijrochilik san’ati yanada ravnaq topdi. Avstriya va Germaniya romantizmiga Yevropaning barcha ijodkorlari ergasha boshlashdi. Shubert, Veber, Mendelson, Shuman kabilarning fortepiano ijodi madaniyatlar tarixiga muhrlandi. Shopen va List – ijrochi va pedagog sifatida dunyoga tanildilar. Ularning fortepiano ijodlaridan namunalar dunyoning eng mohir sozandalari repertuarlaridan o‘rin oldi.

Yevropa milliy fortepiano maktablari. Nemis fortepiano maktabi XIX asr ikkinchi yarmida milliy fortepiano maktablari shakllanishiga andoza bo‘ldi. Nemis fortepiano maktabi vakillari – Brams va Reger, Fransiya fortepiano maktabi – Bize, Frank, Sen-Sans, Norveg-Chex fortepiano maktablari – Grig, Smetana va Dvorjak kabilar milliy fortepiano maktablarinig namoyandalari bo‘ldilar. Rus fortepiano musiqasi “Kuchli to‘da” hisoblanmish – Rubinshteyn, Chaykovskiy ijodida o‘z aksini topdi. XIX asr ikkinchi yarmida “fortepiano pedagogikasi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Skryabin, Metner, Raxmaninov fortepiano san’atlari – ijodiyot va ijrochilikdagi yangi yo‘nalishlar sifatida nom qozondi.

XX asrning 20–40-yillarida ham fortepiano ijrochiligida sezilarli pog‘onalarni kuzatish mumkin bo‘ldi. 20-yillar yangi uslub yo‘nalishlarining faol rivojlanish davri bo‘lgan deb ishnoch bilan ta’kidlash mumkin. S.Prokofev fortepiano ijodi o‘zgacha musiqiy til paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Ko‘plab sonata va konsertlar yaratildi. Prokofev nafaqat kompozitor, balki pianinochi sifatida ham jahon ahliga tanildi. Asr o‘rtalarida yangi uslub yo‘nalishlari shakllandi. Fransiyada impressionizm asosan Debyussining kechki asarlarida namoyon bo‘ldi. Bu kompozitor o‘z ijodini yangilash yo‘lida izlanishlar qildi, yangicha mavzularga murojaat qildi. Xususan, musiqiy ijodiyotga urush obrazlarini kiritdi, bu “Oq va qora” deb nomlangan asarida yaqqol ko‘rindi. 12 ta etyud - Debyussining kechki yo‘nalish qomusi, deb nom oldi.

XX asrning 2-yarmida fortepiano san’atida rivojlanish kuzatildi. Musiqiy avangardning har xil oqimlari paydo bo‘ldi. A.Shyonbergning shogird va izdoshlari nafaqat butun dunyoda, hatto O‘zbekistonda ham paydo bo‘ldi. Musiqa materialini umumiy (total) qator birlashtirilishiga intilishning kuchayishi kuzatildi. Bunday rivojlanish bosqichlari O‘zbekistonda ham bo‘lib o‘tdi va bu haqda keyingi darslarda bilib olasiz.

Fortepiano cholg‘usi xususida

500 yillik tarixga ega klavir san’ati Uyg‘onish davrida vujudga kelib, XVII-XVIII asrlarda gullab-yashnadi. XVIII asr boshida fortepiano cholg‘usi yaratilganidan so‘ng, fortepiano san’ati rivojlanish davri boshlandi.

Ushbu musiqa asbobi XVIII asrning boshlarida (1710 yilda) italiyalik Kristofori tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda ohista va baland (kuchli va kuchsiz)

tovushlarni chalish mumkin bo‘lgan. Shu bois asbobning nomi “fortepiano” deb nomlanib, italyan tilida tovush kuchi nuqtayi nazaridan - “baland-past” ma’nolarini bildiradi.

Asbobning klavishlarini bosganda jaranglaydigan tovushlar esa klavishdan emas, balki asbobning ichida tarang tortilgan simlardan yangraydi.

Agar simlar vertikal (tikka) tortilgan bo‘lsa, bu – fortepiano cholg‘usi bo‘lib, u hajm jihatidan kichikroq hamda katta bo‘lmagan xonalarda ijro etish uchun mo‘ljallangan.

Agar simlar gorizontal (yotiq) tortilgan bo‘lsa, bu – royal cholg‘usidir. Uning tovushlari balandroq va jarangli bo‘lib, hajm jihatidan katta. Royal kontsert zallarida ijro etish uchun mo‘ljallangan.

Fortepianoda o‘tirish, ijrochilik holati

Ma’lumki, har qanday cholg‘uni ijro etishni o‘rganishda avval cholg‘u oldida to‘g‘ri o‘tirib, gavdani, oyoq-qo‘llarni erkin tutish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish muhimdir. Bu ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi ***ijrochilik holati***ning to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi.

Fortepiano ijrochiligida 3 ta tayanch nuqtalari mavjud bo‘lib, bular oyoq holati, o‘rindiqda (stulda) o‘tirish holati va “qo‘l holati” (barmoqlar)dir.

1. Oyoq holati –- bir oz oldinga surilgan holda yerga yoki maxsus taxtachaga tayangan bo‘lishi lozim.

2. O‘rindiqda (stulda) o‘tirganda, butun o‘rindiqqa emas, balki uning yarmiga mustahkam o‘tirish kerak. O‘rindiqning balandligi esa maxsus burama moslama yoki taxtachalar bilan shogirdga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Uning balandligi shunday qo‘yilgan bo‘lishi kerakki, unda tirsaklar klavishdan pastda emas, balki ular bir tekis balandlikda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

3. Barmoqlar uchinchi - eng muhim tayanch nuqtalardan biri sanaladi. Gavdani tik tutgan holda qomatni biroz oldinga, cholg‘uga yaqin tutib, ***“qo‘l holati”*** (barmoqlar)ni qo‘yganda bilak tepaga ko‘tarilmagan, tirsak tanadan ***30^0 burchak ostida*** bo‘lishi maqsadga muvofiq. Yelkalar erkin holatda hamda o‘quvchining qaddi rostlangan bo‘lishi lozim. Qo‘llar yumaloq va klavishni bosganda barmoqlar uchiga tayangan bo‘lishi kerak.

<u>Elementar musiqiy-nazariy bilimlarimizni mustahkamlaymiz!</u>

Musiqiy tovushlar va fortepiano klaviaturasi bilan tanishuv

Musiqada 7 ta asosiy tovushlar bo‘lib, ular – “do, re, mi, fa, sol, lya, si” deb nomlanadi. Biror bir klavishni bosganimizda jaranglaydigan tovush ushbu klavishning nomini belgilaydi, ya’ni klavish ham xuddi tovush kabi «do», «sol» va hokazo deb nomlanadi.



Do, re, mi, fa, sol, lya, si.

Musiqada tovushlarni yozishda beshta chiziqdan foydalaniladi, ular ***«nota yo‘li»*** deb nomlanadi. Chiziqlar pastdan tepaga qarab sanalib, undagi doyra (dumaloq) shaklida yozilgan belgilar nota deb ataladi.



Musiqada yettita nota bo‘lib, ular nota yo‘lining beshta chizig‘ida joylashadi va quyidagicha yoziladi:



Musiqiy kalitlar

Kalit maxsus belgi bo‘lib, u nota chiziqlarining biriga qo‘yiladi hamda muayyan balandlikdagi tovushlarning o‘rnini aniqlaydi. Kalit nota yo‘lining boshiga qo‘yiladi. Fortepiano asarlarini yozish uchun ikki xil kalitdan foydalaniladi. Har bir notaning nomi – nota yo‘lining boshida turgan kalitga qarab belgilanadi.



Bu ***skripka kaliti*** – uning aylanasi ikkinchi chiziqdan yoziladi va nota yo‘lida sol tovushini ochganligi sababli s***ol kaliti*** yoki ***skripka kaliti*** deb ataladi.



Bu **bas kaliti** – uning aylanasi to‘rtinchi chiziqdan yoziladi va nota yo‘lida fa tovushini ochganligi sababli **fa kaliti** yoki **bas kaliti** deb ataladi





Notalarning cho‘zimi



Butun nota 1i, 2i, 3i, 4i sanog‘iga sanaladi

Yarim nota 1i, 2i sanog‘iga sanaladi

Chorak nota 1i sanog‘iga sanaladi

Nimchorak nota 1 yoki i sanog‘iga sanaladi

Takt va takt chizig‘i

Siz biladigan she’rlardagi kabi musiqada ham kuchli, ya’ni uruli tovushlar bo‘ladi. Nota yo‘lida yozilgan ana shu uruli tovushlar oralig‘idagi kuy bo‘lagi - ***takt deb ataladi***.

Nota yozuvida taktlar vertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziq - ***takt chizig‘i*** deyiladi.



Musiqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo‘lgan oralig‘i – ***takt*** deyiladi



Taktlar ikki, uch, to‘rt chorakka teng bo‘lgan turli cho‘zimdagi notalardan tuzilishi mumkin. Takt o‘lchovini ko‘rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so‘ng

yoziladi. Tepadagi raqam bo‘laklar sonini, pastdagi raqam esa shu bo‘laklar cho‘zimini anglatadi.



Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to‘liq bo‘lmagan takt hosil bo‘lib, bunga ***to‘liqsiz takt*** yoki - ***takt oldi*** deyiladi. To‘liqsiz takt ko‘pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.

Agar asardagi musiqiy jumla (fraza) to‘liqsiz taktdan boshlansa, tugashi ham to‘liqsiz bo‘ladi.



Ikkita to‘liqsiz taktlar bitta to‘liq taktni tashkil etadi.

Pauzalar

Qo‘shiq yoki kuyning biron yerida tovushlarning to‘xtashi yoki tanaffus qilinishi zarur bo‘lsa, maxsus musiqiy belgilar qo‘llaniladi.

Bunday belgilar – ***pauza*** deb ataladi. Nota cho‘zimlari har xil bo‘lganidek pauzalar ham turli cho‘zimda bo‘ladi. Ular nota cho‘zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o‘n oltitalik, o‘ttiz ikkitalik kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ijro etilmay, balki ushbu cho‘zimida sanaladi.

Butun pauza



Butun pauza to‘rtinchi chiziqning ostida yoziladi, - **«to‘rt i…»** (yoki, “to‘rt va…”) sanoq davomida yoki butun nota cho‘zimida dam oladi.

Yarimtalik pauza



Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi, – «ikki i» sanoq davomida yoki yarimtalik nota cho‘zimida dam oladi.

Choraktalik pauza

Choraktalik pauza – «bir i» sanoi davomida yoki choraktalik nota cho‘zimida dam oladi.

Sakkiztalik pauza



Sakkiztalik pauza - sakkiztalik nota cho‘zimida dam oladi.

O‘n oltitalik pauza

O‘n oltitalik pauza - o‘n oltitalik nota cho‘zimida dam oladi.

SAVOLLAR:

1. Fortepianoni kim kashf etgan?
2. D.Skarlatti qaysi janrda asarlar yaratgan?
3. Fortepiano cholg‘usi paydo bo‘lishi va fortepianoda ijrochilik san’ati shakllanishida hissa qo‘shgan kompozitorlardan yana kimlarni bilasiz?

Topshiriqlar:

1. 1-semestrning 17-darsdan so‘ng berilgan testlardan 10 tasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.
2. Musiqada jami nechta kalit borligini o‘rganing.

Tayanch iboralar: umuminsoniy cholg‘u sozi, klassisizm, romantizm, Yevropa milliy fortepiano maktablari, fortepiano, baland-past, royal, qo‘l holati.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N.. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н. “Школа игры на фортепиано”. Издательство “Музыка”, Москва, 1975.

2- DARS. MUSIQANING IFODA VOSITALARI

Ritm (usul) **–** musiqiy tovushlarni muayyan qancha vaqt davomida kelishiga aytamiz.

Metr (vazn) – ritmning o‘lchov vositasiga kiradi. U bir xil cho‘zimdagi muayyan ritmik bo‘laklarning to‘xtovsiz takrorlanishidir.

Ohang (melodiya) **–** kuyning eng kichik ifodali bo‘lagi bo‘lib, bir necha ketma-ket olingan tovushlardan hosil bo‘ladi.

Temp (sur’at)

Musiqa asarining ijro etilish sur’atiga - ***temp*** deb ataladi. Templar asosan uch xil ko‘rinishda bo‘ladi: oid templar, o‘rtacha templar va tez templar.

Og‘ir templar

Largo (largo) – juda vazmin, juda cho‘zib.
Lento (lento) – vazmin, cho‘zib.
Adajio (adajio) – og‘ir.
Grave (grave) – juda og‘ir.

O‘rtacha templar

Andante (andante) – shoshilmasdan, o‘rtacha og‘ir.
Moderato (moderato) – o‘rtacha tez.
Sostenuto (sotsenuto) – salobatli.
Allegretto (allegretto) – jonlanib.

Tez templar

Allegro (allegro) – tez.
Vivo (vivo) – jonli, chaqqon.
Vivace (vivache) – jadal.
Presto (presto) – tez, oshiqib.
Prestissimo (prestissimo) – juda tez.

Dinamik belgilar

Musiqa asarining ijrosi yoqimli bo‘lishi yoki biror musiqiy obraz ta’sirini boyitib, tinglovchilarga eshittirish, tovushning qanday kengaytirilishini ko‘rsatish uchun musiqada maxsus belgilar qo‘llaniladi.

Ushbu belgilar nomlari italyanchadan olingan bo‘lib, ular ***dinamik belgilar*** deb ataladi. Dinamik belgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi:

p (*piano*) – mayin, kuchsiz, ohista;
pp (*pianissimo*) – juda mayin, juda kuchsiz;
mp (*messo piano*) – kuchsizroq (*piano*dan kuchli, *forte*dan kuchsizroq);
f (*forte*) – qattiq, kuchli;
ff (*fortissimo*) – juda qattiq, juda kuchli
mf *(messo forte)* – qattiqroq, kuchliroq
cr *(kreshchendo)* – tovushni tobora kuchaytirib borish
dim *(diminuendo)* – tovushni tobora kuchsizlantirib borish
sf *(sfortsando)* – ayrim tovushlarni to‘satdan kuchli ijro etish.



Legato **(liga) –** lotinchada liga – «bog‘layman» ma’nosini anglatadi, ya’ni tovushlarni uzmasdan ijro qilish:



Agar bir xil balandlikdagi ikki notani birlashtiruvchi liga bilan bog‘lansa, ikkinchi tovush chalinmay, faqat shu nota davomiyligida sanaladi:



Stakkato – italyanchada s*takkato* – «ajratilgan», «alohida» ma’nolarini anglatib, tovushlarni qisqa-qisqa, uzib ijro etiladi. Bunda tovushning tagiga yoki ustiga nuqta qo‘yiladi.

Fermata – italyanchada *fermata* – «to‘xtash», «to‘xtab turish» ma’nolarini bildiradi. Bu belgi biror tovush, pauzaning tagiga yoki ustiga qo‘yiladi. Fermata qo‘yilgan nota yoki pauza asarning xarakteriga qarab, bir yarim va ikki barobariga cho‘zib ijro qilinadi.

> Aksent – notani kuchliroq, tovushni ajratib ijro etish belgisi.

_ **Portamento** – notani sal cho‘zibroq, klavishni chuqurroq olishga undaydi.

8va notalarning ustida joylashgan bo‘lsa, bir oktava balandda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

8vb notalarning tagida joylashgan bo‘lsa, bir oktava pastda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

Repriza -qaytarish belgisi

Qo‘shiq yoki musiqa asarining biror bo‘lagini ikki marta takrorlab ijro etish zarur bo‘lsa, qaytarish – ***repriza*** belgisidan foydalaniladi. U kuy bo‘lagini takrorlanishi lozim bo‘lgan taktlarining boshiga va oxiriga qo‘yiladi:



Volta – butun bir asarni yoki uning muayyan qismini takrorlashda har xil tugashi mumkinligini anglatadi.



Nota cho‘zimlarini uzaytiruvchi belgilar - ohanglarda notalar cho‘zimi “nuqtalar”, “ligalar” yordamida uzaytirilishi ham mumkin. Agar notaning o‘ng tomonida nuqta (.) turgan bo‘lsa, ushbu notaga o‘zining cho‘zimning teng yarmiga mos bo‘lgan cho‘zimni (uzunlikni) qo‘shish kerak.

Nuqtalar yordamida nota teng yarmiga uzayadi:





Ton va yarim ton – ikki yonma-yon tovushlarning balandlik jihatidan eng kichik oralii – ***yarim ton*** deb ataladi. Ikkita yarim ton – ***bir ton***ni hosil qiladi. Xuddi ikkita yarimta olmanining bo‘lagini bir-biriga qo‘shsak – bir butun olma hosil bo‘lgandek.



Har bir tovush yarim ton va bir ton ko‘tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin. Bunday pasayish ***alteratsiya***, ya’ni o‘zgarish belgisi bilan ko‘rsatiladi.

♯ **– diyez –** tovushni yarim ton ko‘tarish belgisi.

♭ **– bemol** – tovushni yarim ton tushirish belgisi.

♮ **– bekar –** diez yoki bemol kuchini bekor qilish belgisi.

𝄪 – **dubl diyez –** notani bir tonga ko‘taradi.

♭♭ **– dubl bemol –** notani bir tonga tushiradi.

1)

2)



3)





Yuqorida berilgan alteratsiya belgilari:

1) notaning oldiga qoyilgan bo‘lsa, u faqat aynan shu vaqtda, shu taktdagi notaning o‘zgarishi bilan ifodalanadi;

2) agar bemol yoki diyez asarning boshida, kalitdan so‘ng berilgan bo‘lsa, bu belgi o‘zgarmay butun asar davomida o‘z kuchini saqlaydi;

3) alteratsiya belgili notalar nomi belgi nomi bilan qo‘shib, birgalikda o‘qiladi – “si bemol”, “si bekar” yoki ”fa diyez”, ”fa bekar”, va h.k.

Savollar:

1. K.Chernining qaysi asarlari pianinochilarning texnik mahoratini o‘stirishga mo‘ljallangan?
2. K.Chernining mashhur o‘quvchilaridan biri kim bo‘lgan?
3. Qanday templar va alteratsiya belgilarini bilasiz?

Topshiriqlar:

1. 17- darsdan so‘ng berilgan testlardan keyingi 10 tasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan, yoki axborot tarmoqlaridan toping.
2. Musiqa nazariyasi xususida qaysi tillarda qanday adabiyotlar borligini o‘rganing.

Tayanch iboralar: ritm, metr, ohang, temp, dinamik belgilar, fermata, repriza, volta, nota cho‘zimlari, ton va yarim ton, alteratsiya.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”. Издательство “Музыка”, Москва, 1975.
3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.
4. Hayitboyeva D. Notani varoqdan o‘qish va fortepiano ansambli. – T, “Uzbekiston”, 2010.
5. Ташпулатова Д. Работа над этюдами Г.Мушеля в фортепианном классе. Т. Издательство «Узбекистан». 2011.
6. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

3- DARS. FORTEPIANODA TOVUSHNING TINIQ VA RAVON IJROSI USTIDA ISHLASH

Fortepiano cholg‘usi o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda ijro etishda tovushni tiniq, ravon ijro etish uchun ularning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan bilish hamda ularda ijro etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talab etiladi. Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning aniq ijro etishga erishiladi. Bir nechta musiqiy jumladan esa asarning qismi paydo bo‘ladi. Yangi asarlarni o‘zlashtirish jarayonida har bitta fraza, jumla uchun alohida tovush kuchi talab etilishi mumkin.

Ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mashq va kichik kuylar

Taklif etilayotgan mashqlarni turli shtrixlarda va har xil harakatlarda qo‘llab, barmoqlar texnikasining fikrlash tezligini birinchi darslardan boshlab rivojlantirish zarur.



Oftob chiqdi

O‘zbek xalq qo‘shig‘i



O‘ng qo‘l



Chap qo‘l

Ko‘p miqdorda turli balandlikdagi tovushlarni ikki qo‘lda ijro etish uchun bir-biriga chiziq bilan bo‘lingan ikkita nota yo‘lidan foydalaniladi: yuqoridagi qator o‘ng qo‘lda, pastdagi qator esa chap qo‘lda ijro etish uchun mo‘ljallangan. Ularning **“*akkolada*”** deb nomlanuvchi yoy birlashtirib turadi.

Talabalar o‘rganishlari lozim bo‘lgan eng birinchi kichik asarlar – bir ovozli qo‘shiqlar bo‘lib, ular navbatma-navbat ikki qo‘l bilan chalish uchun mo‘ljallangan.

Qo‘zichoq

Polyak xalq qo‘shig‘i

Andante-shoshilmasdan



Tun

Polyak xalq qo‘shig‘i



Ijro dasturini tanlash

Fortepiano ijrochiligining boshlang‘ich davrida ijro repertuarining ko‘lami nihoyatda kengdir. Jahon kompozitorlarining musiqiy namunalari bilan birga, O‘zbekiston kompozitorlarining milliy ruh bilan sug‘orilgan ko‘plab namunalari, o‘zbek xalq kuylarining fortepiano uchun moslashtirilgan variantlari mavjuddir. Talabalarning badiiy ijrochilik tafakkurini boyitish, texnik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun turli xarakterdagi asarlarni tanlash, zamonaviy kompozitorlarning asarlari bilan birga, O‘zbekiston va jahon musiqa madaniyati durdonalaridan namunalar bilan tanishib borish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘rganishi kerak bo‘lgan ilk asarlar bir ovozli qo‘shiq namunalari bo‘lib, ular asta sekin ikki qo‘l bilan chalish uchun mo‘ljallanadi. Ikki qo‘l orasida taqsimlangan cholg‘u kuyini yanada aniq tushunish uchun sekin tempda kuyning she’riy matnini qo‘shiq qilib kuylash juda foydalidir.

Chitti gul

O‘zbek xalq bolalar o‘yini



Oq terakmi, ko‘k terak

O‘zbek xalq bolalar o‘yini



Archa

A.Muhamedov



Olmacha anor

O‘zbek xalq qo‘shig‘i



Xo‘rozcha

Latish xalq qo‘shig‘i



Kuychan qo‘shiq va sho‘xchan raqs xarakteridagi kuylar bilan bir qatorda, imkon qadar **vazmin xarakterli** asarlarni ham ijro etish lozim. **Quyidagi barchaga ma’lum kuylarni shoshilmay chaling**:

Quyon



Yomg‘ir



Muzda





Savollar:

1. Yilning barcha oylarini kim fortepiano turkumi sifatida ifoda etgan?
2. O‘zbekiston pianinochilaridan kim P.Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlovda ishtirok etgan?

Topshiriqlar:

1. Musiqiy savodxonlikka doir nazariy bilimlaringizni mustahkamlab, bir va ikki qo‘lda ijro etish uchun 2 tadan mashq va kuy namunalarini o‘rganib keling.
2. 17-darsdan so‘ng berilgan testlardan o‘ntasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: tiniq, ravon ijro etish, jumla va frazalar, barmoqlar texnikasi, akkolada

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”. Издательство “Музыка”, Москва, 1975.
3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.

4–5- DARSLAR.
AKKORDLAR CHALISH VA STAKKATO USTIDA ISHLASH



Akkord – ikki yoki undan ortiq tovushlarning qo‘shilib yaxlit holda yangrashidir. notalarni birga chalishga tovush yangrashidagi tanaffus yoki jim turish belgisi. Pauzalar ham notalar singari turli cho‘zimga ega.

Barabanchi

Latish xalq qo‘shig‘i,
V.Ignatyev qayta ishlagan



Stakkato – nota ustidagi yoki tagidagi nuqtalar, ushbu tovushlarni qisqa va uzib chalish kerakligini bildiradi. Ayrim hollarda ushbu usul **staccato** (uzib chalish) so‘zi bilan ham beriladi. Berilgan namunada stakkatoni mashq qiling:

Yetib ol

Chex xalq qo‘shig‘i





Yuqoridagi “Yetib ol” kuyini ikki qo‘l bilan galma-gal ijro etishda ohangning bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunday paytda barmoqlarni klavish ustida uzoq tutib turmaslik kerak, aks holda berilgan kuyga mos bo‘lmagan shtrixlar kelib chiqadi.

Men skripkada chalaman

A.Filippenko



Visla

Polyak xalq qo‘shig‘i



Endi ***staccato***ni musiqaning ifodali vositalari va shtrixlari yordamida mustaqil ijro etishni o‘rganamiz…

Kakku

Fransuz xalq qo‘shig‘i



Barmoqlaringiz kuchli va yostiqchalari mustahkam bo‘lishi uchun ularni doimo mashq qildirish zarur. Buning uchun stakkatoni pianino qopqog‘i yoki stol ustida mashq qiling.

O‘ng qo‘l uchun berilgan ushbu mashqni, chap qo‘lda ham bir oktava pastda teskari yo‘nalishda chalib mashq qiling. Avval har bir barmoq bilan, so‘ng ketma-ketlikda…



Do, re, mi, fa, lya tovushlaridan ham chalib, so‘ng kuylab chaling!



Barmoqlar klavishda mustahkam ijro etishi uchun bu mashqlarni fortepiano qopqog‘ini yopib yoki stol ustida bajarish lozim.

O‘ng qo‘l uchun berilgan ushbu mashqni, chap qo‘lda ham bir oktava pastda teskari yo‘nalishda chalib mashq qiling. Avval har bir barmoq bilan, so‘ng ketma-ketlikda…





Etyud – texnik xarakterdagi asar yoki yakunlangan musiqiy tuzilmadagi mashqdir. Siz uni o‘rganish jarayonida ustozingiz ko‘magida notalarni ovozingizni chiqarib sanab, ritmiga qarsak bilan jo‘r bo‘lib, o‘rganishingiz mumkindir.

Etyud

Y.Gnesina



Etyud

Y.Gnesina



Quyidagi ikkitali notalarni mashq qilishda qo‘llaringiz olma kabi yumaloq bo‘lishiga, barmoq suyaklaringizning ko‘rinib, yostiqchalaringizning mustahkam turishiga e'tibor bering**.** Shu bilan birga, bilagingiz yumshoq bo‘lishi zarur. “Staccato”ni chalganda qo‘lingiz royal qopqog‘i tomon harakatlanadi. Lekin keyingi ikkitalik nota mustahkam barmoqlar bilan olinadi.



Shuningdek, 1/3, 5/3 barmoqlarda ham mashq qilish lozim.

Etyud

Ye.Gnesina



Etyud

Ye.Gnesina



Shuningdek, 5/1, 5/3 barmoqlarda ham mashq qilish lozim.

Ushbu mashqlarni ijro etishda nafaqat oq balki qora klavishlarda ham turli applikaturalardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tavsiya etilayotgan mashqlar o‘ng qo‘l uchun, chap qo‘lda ularni bir oktava pastda chalish lozim.

Etyud

Y.Gnesina

Ravon, mayin



Etyud

Y.Gnesina

Ravon, mayin



Ushbu mashqlarni chaling!

O‘ng qo‘l



Chap qo‘l



O‘ng qo‘l



Chap qo‘l



Ushbu bir qarashda sodda ko‘ringan etyudlarda birinchi bor gammasimon harakatlar qo‘llanilmoqda. Etyudlarni o‘rganishda ***legato***ning ravon chalinishiga erishish lozim.

1)



2)



3)



4)



Yuqoridagi etyudlarni ijro etishda barmoqlarni To‘g‘ri olinishiga, shtrixlarni aniq va to‘g‘ri bajarilishiga e’tibor qarating. Ularni o‘rganishda o‘n oltitalik notalar gruppirovkasini 1, 4, 8 va. x. tovushlariga to‘xtab ijro etib o‘rganish ham yaxshi samara beradi.

Savollar:

1. Akkord nima va u qanday chalinadi?
2. Stakkato, etyud, legato nima va ularni qay tarzda ijro etamiz?
3. I.S.Bax ketidan O‘zbekiston kompozitorlaridan kim “Prelyudiya va fugalar” turkumini yaratgan?

Topshiriqlar:

1. Darsda o‘tilgan etyud va kuy namunalarini usullar yordamida o‘rganing, 2-3 ta etyudni yod oling.

2. 17-darsdan so‘ng berilgan testlardan keyingi 10tasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan, yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: akkord, stakkato, etyud, legato

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”.Издательство “Музыка”, Москва, 1975.

3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.

4. Xayitboyeva D. Notani varoqdan o‘qish va fortepiano ansambli. – T, “Uzbekiston”, 2010.

5. Tashpulatova D. Rabota nad etyudami G. Mushelya v fortepiannom klasse. – T. «Uzbekistan». 2011.

6. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

6-8– DARSLAR. AMALIY IJROCHILIK MASHG‘ULOTLARI

1. O‘tgan darslarda o‘rgangan “Kakku” kuyi ijrosini yanada mustahkamlang, chunki uni oraliq nazoratda chalib berasiz.

2. Darslik ilovasida berilgan gamma, akkord va arpedjiolardan tanlab chaling.

Bir ovozda ifodalangan qo‘shiqlardan so‘ng, chap qo‘lda bas harakatsiz jo‘rlik qiladigan namunalarni ijro etish ham foydalidir.

Alla

X.Azimov



Etyud

Y.Gnesina





Polifonik asarlar

Polifoniya[1] (yunoncha poli-ko‘p, fone-tovush, ovoz) – ko‘p ovozli musiqa turi, har biri alohida mustaqillikga ega bo‘lgan, bir necha kuyning garmonik qo‘shilib, murakkablashib rivojlanishidir. Polifoniyadagi ovozlar turli ohang (intonastiya) ritm, avj (kulminastiya), intonastiya, kadanslar va hatto dinamik tuslar va tembrlarida bo‘lishlaridan qat’iy nazar, bular qo‘shilib bir umumiy eshitilishga bo‘ysunadilar. Musiqa tuzilishida polifoniyaning ahamiyati juda muhim, chunki bundagi kuy, ritm, lad va garmoniyalar o‘zaro uzviy boliq holda rivojlanadi. Shuning uchun musiqa janrlarining turli shakllari (fuga, invenstiya va kanon v.b.)da polifonik tuzilishlar qo‘llaniladi. G‘arbiy Yevropa va rus klassik kompozitorlari o‘z asarlarida polifoniyadan keng foydalanganlar. O‘tgan asrda yashagan kompozitorlardan I.S.Bax va G.F.Gendel ijodida polifoniya yanada rivojlandi. O‘zbek xalq musiqasiga ko‘p ovozli musiqa an’analarini tadbiq etishda polifoniya alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. XX asrning 20-yillarida o‘zbek xalq kuylarini garmoniyalashda polifoniya shakllaridan foydalanildi va bu tajriba kelgusida ko‘p ovozli yirik asarlar yaratishda O‘zbekiston kompozitorlariga omil bo‘ldi.

Asarlarda polifoniyalar ovozosti, qarama-qarshi, imitastion yozuvda uchraydi. **Ovozosti polifoniya** – asosiy ovoz rivojlanib, qolganlari u qadar mustaqillikga ega bo‘lmagani holda asosiy ovozga tobe bo‘ladi. Ayrim hollarda bu ovozlar muayyan o‘zgarishlar bilan takrorlab, u bilan paralel ravishda rivojlanadi. Bundan boshqa hollarda esa bu ovozlar asosiy ovozlardan farq qilib, umumiy rivoj konturlarida birlashishi mumkin. Har qaysi hollarda ham ovoz osti polifoniyasi melodik rivojning umumiy kuylanishini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qarama-qarshi ovozlar polifoniyasi - melodik boshlovchilikning turli ovozlarda rivojlanishidir. Natijada ovozlar navbatma-navbat oldingi o‘ringa chiqadi.

Nimalar devdim Sizga...

O‘zbek xalq qo‘shig‘i



Menuet

(Volfgang Motsartning nota daftaridan)

V.A.Motsart

Andante-shoshilmasdan





Menuet

V.A.Motsart





Ayriliqda

A.Grechaninov

Andantino





Qo‘niroqchalar yangrar...

V.A.Motsart



Olmacha anor

O‘zbek xalq qo‘shig‘i





Belorus xalq qo‘shig‘i



Kuz



Qora klavishlar bo‘ylab ham kuy chalib ko‘ring.

Qora klavishlarda chalaman…

A.Gedike



Archa bayrami

Ik.Akbarov



Etyud – texnik xarakterdagi asar yoki yakunlangan musiqiy tuzilmadagi mashqdir. Siz uni o‘rganish jarayonida ustozingiz ko‘magida notalarni ovozingizni chiqarib sanab, ritmiga qarsak bilan jo‘r bo‘lib o‘rganishingiz mumkin.

Etyud

Y.Gnesina



Etyud

Y.Gnesina





Jamalagim

O‘zbek xalq qo‘shig‘i



Chamanda gul

O‘zbek xalq qo‘shig‘i





Uchib kel, qushcha

Nemis xalq kuyi

Moderato-mo‘tadil





O‘ng qo‘l uchun berilgan ushbu mashqni, chap qo‘lda ham bir oktava pastda teskari yo‘nalishda chalib mashq qiling.



Quyidagi mashqlarni – **re, mi, fa, lya** tovushlaridan boshlab ham chaling:



Faqat o‘ng qo‘l bilan chaling:



Savollar:

1. Etyud nima, ijrochilik mahoratini rivojlantirishda etyudlar qanday vazifani bajaradi?
2. O‘zbekistonda XX asrning 2-yarmida o‘rta maxsus ta’lim tizimida iqtidorli pianinochilarni tarbiyalagan mashhur pedagog kim?

Topshiriqlar:

1. Avvalgi darslarda o‘rganilgan – V.A.Mosartning re-minor tonalligidagi “Menuet” asarini oraliq nazoratda ko‘rsatish uchun mohirona ijrosini tayyorlang.
2. 17-darsdan so‘ng berilgan testlardan keyingi o‘ntasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: polifoniya, avj, kadanslar, dinamik tuslar, fuga, kanon, ko‘p ovozli musiqa, ovozosti polifoniya, qarama-qarshi ovozlar polifoniyasi, etyud.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1.Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”.Издательство “Музыка”, Москва, 1975.

3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.

4. Xayitboyeva D. Notani varoqdan o‘qish va fortepiano ansambli. – T., “Uzbekiston”, 2010.

5. Tashpulatova D. Rabota nad etyudami G. Mushelya v fortepiannom klasse. -T. «Uzbekistan». 2011.

6. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

9- DARS. 1-SEMESTR ORALIQ NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI SAHNADA TAYYORLASH VA TOPSHIRISH

1–8-darslar mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturiga kiritilgan va ijrosi tayyorlangan etyud va kuylar nota matnini mukammal o‘zlashtirishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Mahoratingiz ijobiy baholangandagina siz semestrning Yakuniy nazorati (YaN) dasturlarini xotirjamlik bilan o‘rganishga kirishasiz. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

10–16- DARSLAR. FORTEPIANO CHOLG‘USIDA TOVUSHNING YANADA TINIQ, RAVSHAN IJROSI USTIDA ISHLASH

Fortepiano cholg‘usi o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda ijro etishda tovushni ravon, tiniq ijro etish uchun ularni imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan hamda ularda ijro etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talab etiladi. O‘qituvchi har bitta talabaga o‘z ijrosini mukammal darajada bo‘lishiga yordam berishi kerak. Ijro etilayotgan asarlarni qismlarga va qismlarni jumla va frazalarga bo‘lish orqali musiqaning aniq ijro etishga erishiladi. Bir nechta musiqiy jumladan esa asarning qismi paydo bo‘ladi. Yangi asarlarni o‘zlashtirish jarayonida har bitta fraza, jumla uchun alohida tovush kuchi talab etilishi mumkin.

Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish

Ijrochilikda doim ham ijro uchun zarur bo‘lgan shtrixlar ko‘rsatilmaydi. Shuning uchun har bitta asar ijrosi davrida o‘qituvchi ma’lum nota tovushlarini tegishli shtrixda (fortepianoda) ijro etish lozimligi bo‘yicha vazifa qo‘yadi va talabaning shu xos shtrixlarga amal qilishini talab qiladi. Agar talaba o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifani to‘liq bajara olmasa, o‘qituvchi notalar ustiga tegishli shtrixlarni yozib qo‘yishi kerak bo‘ladi. Cholg‘u ijrochiligida ijro usullarini (chap va o‘ng qo‘lning holatlari)ni To‘g‘ri tanlash ham talab etiladi. Bu esa ijro texnikasidan unumli foydalanishni ta’minlaydi.

Stakkato

Nota ustidagi yoki tagidagi nuqtalar, ushbu tovushlarni qisqa va uzib chalish kerakligini bildiradi. Ayrim hollarda ushbu usul ***stakkato*** (uzib chalish) so‘zi bilan ham beriladi.

Etyud

Y.Gnesina



Etyud

Y.Gnesina



Kuy

Y.Gnesina



Etyud

Y.Gnesina



To‘polonchi

O.Ber



Latish xalq qo‘shig‘i

P.Listite



Qashqarcha

O‘zbek xalq kuyi



Kakku

Fransuz xalq qo‘shig‘i

Shoshilmasdan





Nemischa raqs

L.Betxoven





Yomg‘irjon

S.Maykapar



Asta-sekin kuy tuzilishiga ko‘ra murakkabroq, jo‘rligi polifonik yo‘lda rivojlangan asarlarga o‘tiladi.

“Kuy”

A.Mansurovning “Olmacha anor” kuyi asosidagi “7 ta kuy” turkumidan 1-kuy



Kakku

(Chex xalq qo‘shig‘i)

I.Berkovich





Savollar:

1. Stakkato shtrixi qanday ijro etiladi, necha xil stakkatoni bilasiz?.

2. “Olmacha anor” kuyi asosida ”7 ta kuy” turkumini yaratgan o‘zbek kompozitori Avaz Mansurov haqida nimalarni bilasiz?

3. F.List qaysi milliy kompozitorlik maktabining vakili?

Topshiriqlar:

1.Stakkatoga doir nazariy bilimlaringizni mustahkamlab, ikki qo‘lda ijro etish uchun ixtiyoriy 2 ta kuyni o‘rganib keling.

2. 17-darsdan so‘ng berilgan testlardan keyingi 10tasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan, yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: kuy tuzilishi, polifonik yo‘l

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1.Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2.Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”.Издательство “Музыка”, Москва, 1975.

3.Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.

4. Xayitboyeva D. Notani varozqdan o‘qish va fortepiano ansambli. – T, “Uzbekiston”, 2010.

5. Tashpulatova D. Rabota nad etyudami G. Mushelya v fortepiannom klasse. -T. «Uzbekistan». 2011.

6. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

17- DARS. 1-SEMESTR YAKUNIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI SAHNADA TAYYORLASH VA TOPSHIRISH

1- semestrning 17- haftasi mobaynida Yakuniy nazorat (YaN) dasturiga kiritilgan asarlarni mukammal o‘zlashtirdingiz. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Etyudlar va turli janrlardagi asarlarni ijrosining me’yoriga yetkazib, asarlar mazmunini tinglovchiga singdira olsangizgina mahoratingiz ijobiy baholanadi. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

O‘quv rejadagi barcha semestr fanlarini ham topshirib, keyingi semestrda o‘qishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hech qachon esingizdan chiqmasin!

TESTLAR

(1-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun)

№	Test topshirig‘i	“A”	“B”	“C”	“D”
1.	Tovushni yarim tonga ko‘taruvchi belgi nima?	diyez	bekar	bemol	dubl diyez
2.	Tovushni yarim tonga pasaytiruvchi belgi nima?	bemol	dubl diyez	bekar	dubl bekar
3.	Diyez yoki bemolni inkor etuvchi belgi nima?	bekar	fermata	pauza	aksent
4.	Jimlik belgisi nima?	fermata	pauza	mordent	forshlag
5.	Gamma nechta notadan iborat?	9	8	7	6
6.	Gammalarni belgilang.	pentatonika	major, minor	lidiy	xromatik
7.	Qanday minor gammalarini bilasiz?	tabiiy	melodik	garmonik	Barcha javoblar to‘g‘ri
8.	Notadan keyin qo‘yilgan nuqta nimani anglatadi?	stakkatoni	Notaning yarmiga teng uzaytirilgan cho‘zimni	aksentni	Notaning yarmiga teng qisqartirilgan cho‘zimni

9.	Qanday kalitlarni bilasiz?	alt	bas	skripka	Barcha javoblar to‘g‘ri
10.	Bir ton nima?	2ta yarim tonning yig‘indisi	Yonma-yon tovushlarning oralig‘i	3ta yarim tonning yig‘indisi	Yonma-yon tovushlarning eng qisqa oralig‘i
11.	Yarim ton nima?	2ta bir xil tovushning oralig‘i	Yonma-yon tovushlarning eng qisqa oralig‘i	Bir oktava oralig‘i	Yonma-yon tovushlarning oralig‘i
12.	Kalitdan so‘ng qanday o‘lchovlar qo‘yiladi?	o‘zgaruvchan	2/4, 3/4, 4/4 va b.	3/8, 6/8, 3/2 va b.	Barcha javoblar to‘g‘ri
13.	Xromatik gamma qanday tuziladi?	Bir tonlab	Yarim tonlab	Faqat yuqoriga qarab	Faqat pastga qarab
14.	Fortepianoda ijro maktabiga qaratilgan qanday adabiyotlarni bilasiz?	P.Chaykovs-kiyning «Bolalar albomi»	Nikolayev tahriri ostidagi “Fortepianoda ijro maktabi”, X.Azimovning “Fortepiano darsligi”	V.Sradjev-ning ”Yosh piani-nochi” asari	E.Grigning “Lirik kuylari”
15.	Etyud nima?	Ko‘p ovozli kuy	Barmoqlar texnikasini o‘stirish uchun asarlar	Virtuoz kuy	Bir ovozli kuy
16.	Ansambl nima?	Faqat 2 musiqachi-ning chiqishi	2 va undan ko‘p cholg‘ularda ijrochilik	2 va undan ko‘p cholg‘ular uchun kuy	Barcha javoblar to‘g‘ri
17.	Qanday dinamik belgilarni bilasiz?	stakkato	forte, piano, krescendo, diminuendo	legato	non legato
18.	Musiqiy shtrixlar nima?	legato, stakkato, non legato kabi musiqaning ifoda vositalari	pauza	fermata	zatakt
19.	Qaysilari musiqaning tez templari?	Moderato, andante	allegro, presto, vivache, vivo	largo, adajio	rubato
20.	Qaysilari musiqaning sekin templari?	allegretto	lento, adajio, largo, grave	moderato	presto

21.	Qaysilari musiqaning o‘rtacha templari?	allegro, vivache	andante, moderato, allegretto	maestozo	adajio, lento
22.	Qaysilari musiqa janrlari?	musiqali drama, opera, balet	Polifonik kuylar, sonatalar, etyudlar, ansambllar	simfoniya, oratoriya, kantata	Barcha javoblar to‘g‘ri
23.	I.S.Bax qanday asarlar yaratgan?	simfoniyalar	Polifonik (menuet, ariya, prelyudii va fugi)	etyud	opera
24.	Qaysi kompozitorlar sonatalar va sonatinalar yaratishgan?	K.Cherni	L.Betxoven, V.Motsart, I.Gaydn, A.Diabelli, M.Klementi, D.Chimarozo, F.Kulau va b.	J.Bize	Lemuan, Leshgorn
25.	Musiqada akkord nima?	2ta tovushning bir paytda yangrashi	3ta tovushning bir paytda yangrashi	oktava	sekunda
26.	Musiqada takt nima?	Musiqiy fraza	Kuyni ma’lum bir ritmik bo‘laklarga ajratish	Kuyni kuchli hissalar bo‘yicha ajratish	Kuyni kuchsiz hissalar bo‘yicha ajratish
27.	Aksent nima?	Tovushni o‘chirish	Tovushni ajratish	Tovushni uzaytirish	Tovushni qisqartirish
28.	**Do major** gammasida nechta belgi bor?	1ta diyez	2ta bemol	Belgi yo‘q	2ta diyez
29.	Qaysilari damli cholg‘ular?	tarelka	tuba, trombon	kastaneta	arfa
30.	Qanday pedallar bo‘ladi va ular nima uchun kerak?	O‘ng pedal, tovushni cho‘zish uchun	Chap pedal, tovushni chisqartirish uchun	O‘rta pedal, tovushni o‘chirish uchun	Barcha javoblar to‘g‘ri
31.	Kuyni ijro etayotganda chap qo‘l qanday vazifa bajaradi?	Mavzuni chaladi	Akkompa-nement vazifasini	Garmonik boyitadi	Barcha javoblar to‘g‘ri
32.	Pianinoning royaldan qanday farqi bor?	Rangi boshqa	Royalning tovushi baland	Farqi yo‘q	Fakturasi boshqa

33.	“Musiqa shakli” deganda nimani tushunasiz?	Musiqa asari tuzilishining ma’lum bir tamoyili	Musiqa shakli – bu variatsiyalash	Asarning ritmik asosi	Musiqa asarining musiqiy-badiiy asosi
34.	Fuga nima?	Bir ovozli asar	Bir yoki bir necha mavzularga asoslangan ko‘p ovozli asar	Mungli kuy	Virtuoz asar
35.	Polifoniya bu - ...	ko‘p ovozlilikdir	Orkestr uchun asar	Ansambl uchun asar	Vokal asar
36.	Qanday polifonik asarlar bo‘ladi?	kanon	fuga	invensiya	Barcha javoblar to‘g‘ri
37.	Sonatalar necha qismli bo‘lishi mumkin?	2	3	4	Barcha javoblar to‘g‘ri
38.	Fortepianoni kim kashf etgan?	Bartolomeo Kristofori	Djovanni Gabrieli	Djon Freskobaldi	Paul Xofmayer
39.	Fransuz klavesin maktabining mohir vakili kim?	F.Kuperen	D.Skarlatti	F.Dandrie	I.Kunau
40.	D.Skarlatti qaysi janrda asarlar yaratgan?	Sonata	Preludiya	Etyud	Fantaziya
41.	Fortepiano uchun o‘ng tomondagi oyoq pedalni kim yaratgan?	S.Erar	A.Bayer	D/Brodvud	B.Kristofori
42.	I.S.Bax nechanchi yillarda hayot kechirgan?	1735-1782	1714-1784	1543-1574	1685-1750
43.	Temperatsiyada oktava nechta yarim tonlarga bo‘linadi?	12	8	10	11
44.	Klassisizm davrida fortepiano musiqasida qaysi shakl ravnaq topgan?	Syuita	Sonata	Pregudiya	Fuga
45.	I.Gaydn ijodida klavir uchun qaysi janr ustun kelgan?	Sonata	Fantaziya	Kaprichchio	Suita
46.	V.Mosart nechta fortepiano sonatalar yaratgan?	11	25	17	16
47.	V.Mosart fortepiano ijrochisi sifatida kim bilan musobaqalashgan?	M,Klementi	Dj.Fild	L.Bethoven	F.Buzoni
48.	V.Motsart fortepiano uchun nechta konsertlar yaratgan ?	20	11	17	27
49.	K.Cherni qaysi asarlari pianinochilarning texnik	Etyudlar	Kontsert	Variatsiya	Toccata

	mahoratini o‘stirishga mo‘ljallahgan?				
50.	K.Chernining mashhur o‘quvchilaridan biri kim bo‘lgan?	I.Kramer	L.Bethoven	F.List	C.Talberg
51.	Romantizm davrida qanday obrazlar ustun keladi?	Hissiy	Qahramonona	Falsafiy	Diniy
52.	F.Shubert qaysi fortepiano miniatyuralarni yaratgan?	Preludiya	Musiqiy daqiqalar	Polonez	Marsh
53.	Kim fotrepiano romantik miniatura asoschisi deb hisoblanadi?	L.Betxoven	V.Mosart	F.Shubert	I.Kramer
54.	Germaniyada ilk konservatoriyani kim tashkil etgan?	F.Mendelson	R.Shuman	F.Shubert	L.Betxoven
55.	XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada kim buyuk pianinochi sifatida e’tirof etilgan?	K.Veber	F.List	I.Brams	F.Shubert
56.	F.List qaysi milliy kompozitorlik maktab vakili?	Vengr	Polsha	Italian	Avstriya
57.	F.Listning fortepiano ijodida qaysi janr milliy an’analarni aks ettiradi?	Ekspromt	Polonez	Rapsodiya	Skertso
58.	F.Listning programma majmuasi qanday nomlanadi?	Sayohat yillari	Sayohat manzaralari	Sayohat sahifalari	Sayohat rasmlari
59.	F.Listning etudlari qanday nomlangan?	Manzaraliy	Texnik mahorat	Badiiy mahorat	Transtedent
60.	F.Listning fortepiano uchun moslashgan boshqa asarlari qanday nomlanadi?	Transk-ripsiya	Qayta s’ozlash	Yangi opus	Qayta ishlanma
61.	F.Listning “Sayohat yillari” asarlar majmuasi nechta qismdan iborat?	1	3	2	4
62.	E.Grig qaysi milliy maktabining vakili?	Norveg	Slavyan	Rus	Fin
63.	E.Grigning fortrepiano miniatyuralari qanday nomlangan?	Dramatik piyesalar	Lirik piyesalar	Elegiyalar	Lendler
64.	E.Grigning fortepiano konserti qaysi tonallikda yozilgan?	a-moll	D-dur	f-moll	E-dur
65.	XIX asrda rus kompozitorlarning “Qudratli to‘da” ijodiy guruhga nechta vakil kirgan?	4	6	7	5
66.	Rossiyada birinchi konsevatoriya kimning tashabbusi bilan ochilgan ?	A.Rubinsh-teyn	M.Glinka	A.Dargo-mijskiy	A.Borodin
67.	XIX asrda Rossiyada kim mohir pianinochi deb hisoblangan?	Ts.Kyui	A.Rubinsheyn	P.Chaykov-skiy	M.Glinka

68.	“Ko‘rgazmadagi rasmchalar” asarinig muallifi kim?	M.Musogskiy	P.Chaykovskiy	A.Borodin	M.Balakiryev
69.	Yilning barcha oylarni kim fortepiano majmuasy sifatida ifoda etgan?	M.Glinka	M.Musogskiy	A. Rubinsh-teyn	P.Chaykov-skiy
70.	P.Chaykovskiy nechta fortepiano kontsertlarni yaratgan?	3	2	5	7
71.	P.Chaykovskiyning 1-fortepiano konserti qaysi tonallikda yozilgan?	c-moll	b-moll	fis-moll	d-moll
72.	P.Chaykovskiyning bolalar uchun piyesalari qanday nomlanadi?	Bolalar albomi	Kichkintoylar olami	Bolalar dunyosi	Bolalar hayotiga
73.	P.Chaykovskiyning “Yil fasillari” asariga nechta piyesa kirgan?	24	12	18	10
74.	P.Chaykovskiy nomidagi 1-xalqaro tanlov qachon tashkil etilgan?	1974 yilda	1960 yilda	1958 yilda	1966 yilda
75.	O‘zbekiston pianinochilaridan kim P.Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlovda ishtirok etgan?	A.Sultonov	U.Polvonov	N.Salim-jonova	B.Haqna-zarova
76.	O‘zbekiston kompozitorlaridan kim organ uchun birinchi asarlar yaratdi?	G.Mushel	B.Giyenko	A.Man-surov	R.Abdullayev
77.	P.Chaykovskiyning 1-konserti kimga bag‘ishlangan?	G.fon Bulov	A.Rubinsheyn	F.Shalyapin	K.Cherni
78.	I.S.Bax ketidan O‘zbekiston kompozitorlaridan kim Prelyudia va fuga turkumini yaratgan?	M.Bafoyev	M.Ashrafiy	R.Abdul-layev	G.Mushel
79.	O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ayol pianinochilaridan kim rektor lavozimida ishlagan?	O.Yusupova	D.Murodova	F.Abdurahi-mova	A.Sharipova
80.	O‘zbekistonda ilk konsert asarlarini kim yaratgan?	I.Akbarov	M.Ashrafiy	G.Mushel	R.Abdullayev
81.	Trel nima?	ijro usuli	uch kishidan tuzilgan ansambl	urma zarbli cholg‘u	uch notadan tuzilgan ritmik shakl
82.	Diapazon nima?	cholg‘u asbobi	garmonik ohangdosh tovushlar	sozlaydigan moslama	eng past va eng baland tovush oralii

83.	Akkolada nima?	melizm turi	dinamik belgi	nota yo‘llarini bog‘lay-digan qavs	ijro usuli
84.	Simfonik orkestr tarkibiga kiruvchi cholg‘ular qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	fleyta, goboy, arfa	skripka, fortepiano, doira	fortepiano, ud, skripka	nay, trombon, litavra
85.	Faqat skripka kalitida chaladigan cholg‘u qaysi?	alt	skripka	violonchel	kontrabas

Shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlaringizni mustahkamlash uchun quyidagi musiqiy krossvord boshqotirmasini ham yeching:

MUSIQIY KROSSVORD

“Kompozitor, kashfiyotchi, ustoz, sozand…” krossvordi

(Jahon va O‘zbekiston musiqachilarining familiyalari bo‘yicha)



Izohlar: *a) lotin alifbosidagi undosh qo‘sh harflar alohida kataklarga yoziladi; b) musiqachilarning faqat familiyasi kiritilgan.*

SAVOLLAR:

Gorizontal bo‘yicha:	Vertikal bo‘yicha:
1. I.S.Bax ketidan O‘zbekiston kompozitorlaridan kim Prelyudiya va fugalar turkumini yaratgan? 2. Yilning barcha oylarini kim fortepiano turkumi sifatida ifoda etgan? 3. K.Cherni qaysi asarlari pianinochilarning texnik mahoratini o‘stirishga mo‘ljallangan? 4. O‘zbekistonda XX asrda o‘rta maxsus ta’lim tizimida iqtidorli pianinochilarni tarbiyalagan mashhur pedagog kim? 5. K.Chernining mashhur o‘quvchilaridan biri kim bo‘lgan?	1. D.Skarlatti qaysi janrda asarlar yaratgan? 2. Fortepianoni kim kashf etgan? 3. O‘zbekiston pianinochilaridan kim P.Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlovda ishtirok etgan?

18–20- DARSLAR.
IJROCHILIK TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH USTIDA ISHLASH

Ijro texnikasini o‘stirishda mashqlarning ahamiyati katta. Odatda mashqlar o‘rganilayotgan asardagi murakkab joylarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi va shu bois mashqlar o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. O‘quvchining ijro mahoratini shakllantirish, texnikasini o‘stirish maqsadida doimiy ravishda asosiy asarlarga qo‘shimcha mashqlar tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan maslahatlar talabaning ijrodagi zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mashqlar ustida mustaqil ishlash

Rivojlanayotgan o‘quv tizimi yo‘nalishida talabalarning dasturiga albatta mashqlar – **gammalar, akkordlar, arpedjio** kabilarning kiritilishi talab etiladi (ular darslikning 1-ilovasida tonalliklar kesimida berildi). Bunday mashqlar katta zallarda tomoshabinlarning oldida ijro etish darajasida bo‘lmasa-da, lekin aynan shunday ish shakli keng repertuarni qamrab olishi musiqiy dunyoqarashning kengayishiga, intellektning rivojlanishi uchun o‘ta zarurdir. Dasturga mustaqil o‘rganiladigan asarlarning ham kiritilishi yakka ijroviy fikrlashning tarbiyaviy maqsadi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu **mashqlar va ketidan etyudlar**ni ijro etishda nafaqat oq, balki qora klavishlarda ham turli applikaturalardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tersiyali notalarni ijro etamiz…

Mashq

Y.Gnesina



Tavsiya etilayotgan mashqlar o‘ng qo‘l uchun, chap qo‘lda ularni bir oktava pastda chalish lozim.

Mashq

Y.Gnesina



Etyud

Y.Gnesina

Shoshmasdan



Etyud

A.Gedike

Shoshilmasdan





Etyud

L.Shitte

Shoshilmay



Aziz talabalar, endigi etyud-mashqlarda notada belgilangan **liga va stakkatolar**ni inobatga olgan holda ijrolarni bajarishingiz lozim bo‘ladi. Musiqa yangrashida ularning ahamiyati juda katta, buni hech qachon yodingizdan chiqarmang.

Etyud

Y.Gnesina



Etyud

L.Shitte



Tez sur’atli kuylarda uzun ligalar va stakkatolarni ham chalib ko‘ring.

Etyud

I.Berkovich





Etyud

A.Lemuan



Notalar yuqorisida va ostida ko‘rsatilgan barmoqlarga qat’iy amal qilib chaling.

Etyud

K.Cherni



Etyud

K.Cherni



Etyud

L.Shitte



Etyud

I.Berkovich



Etyud

(N.Paganini mavzusiga)

I.Berkovich

Tezroq



Quyidagi etyudning 3-taktidagi singari barmoqlarning tovushlardagi almashinuvi ko‘pincha polifonik asarlarda uchraydigan applikatura usulidir.

Etyud

E.Gnesina

Shoshilmay, bosiq



Barmoq almashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi mashqni 2-1, 4-3, 5-4- barmoqlarda ham bajarish lozim. Ushbu mashq barmoqlar harakatining egiluvchan va yumshoq bo‘lishiga yordam beradi va ***legato*** texnikasini rivojlantiradi:



Jek va Jil

Ingliz xalq qo‘shig‘i

Moderato-mo‘tadil



Tinchlik bog‘i



Savollar:

1. Zamonaviy O‘zbekiston kompozitorlaridan kim fortepiano konsert janriga katta hissa qo‘shmoqda?
2. Texnik jihatdan mukammal ijro etuvchi pianist qanday nomlanadi?
3. Tokkata janri uchun qanday sur’at tanlanadi?

Topshiriqlar:

1. I.Berkovich tomonidan N.Paganini mavzusiga asoslanib yozilgan “Etyud”ning oraliq nazoratda ko‘rsatish uchun mohirona ijrosini tayyorlang.
2. 2-semestrning 17-darsidan so‘ng berilgan testlardan 20 tasini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: ijrochilik texnikasi, musiqiy dunyoqarash, intellekt, yakka ijroviy fikr, applikatura, tersiyali notalar, uzun ligalar, barmoqlar harakati.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Ташпулатова Д. Работа над этюдами Г.Мушеля в фортепианном классе. Т., «Узбекистан», 2011.
2. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

21–25- DARSLAR. ASARLARNI MUSTAQIL RAVISHDA TAHLIL QILIB O‘RGANISH

Tanlangan yangi asarning mukammal ijrosini tayyorlash – nota matnini tahlil etib, tegishli cholg‘uda “o‘qish” (chitka), ya’ni chalib ko‘rishdan boshlanadi. Magnit tasmalarida saqlanib qolgan yozuvlarni eshitish, qolaversa, zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish ham davr taqozosidir. Nota matnining to‘g‘ri talqin etilishi uchun talabaning nazariy bilimlari va ijro malakalari bo‘lishi shart. Nota matnini dastlabki chalish davrlarida imkoni boricha sanab, sekin usulda boshlash katta ahamiyatga ega. Chunki noto‘g‘ri talqin etilgan nota yoki jumla talaba tomonidan o‘zlashtirilgandan keyin uni to‘g‘rilash ancha qiyin kechishi mumkin. Nota matnining ma’lum qismi talaba tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirib bo‘lingandan keyin asar usulini tezlashtirish mumkin. Asarning qiyinroq bo‘laklarini o‘zlashtirish davrida o‘qituvchi talabaga mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Bu mashqlar talabaning ijro texnikasi o‘sishi uchun xizmat qiladi.

Jahon va o‘zbek musiqasi namunalarida ijro mahoratimizni oshiramiz...

Alla

I.Filipp





Nimalar devdim sizga...

O‘zbek xalq kuyi

O‘ynoqi



Do‘lancha

O‘zbek xalq kuyi

O‘ynoqi



Gullola

O‘ynoqi O‘zbek xalq kuyi



Yallama yorim

O‘ynoqi O‘zbek xalq kuyi




rit.

Xa, do‘rsi

O‘zbek xalq kuyi

O‘ynoqi



Chaman ichra

Kuychan O‘zbek xalq kuyi



Daryo toshqin

O‘ynoqi O‘zbek xalq kuyi





POLIFONIK ASARLAR

Menuet

G.Gendel



“Kuy”

A.Mansurovning “Olmacha anor” kuyi
asosidagi ”7 ta kuy” turkumidan 3-kuy





Savollar:

1. Polifonik asarlar deganda nimalarni tushunasiz?

2. “Olmacha anor” xalq kuyi asosida qaysi kompozitorlar fortepiano uchun kuylar yozganlar?

3. Siz fortepiano uchun kuylar yaratgan yana qaysi o‘zbek kompozitorlarini bilasiz?

3. C.Raxmaninov fortepiano uchun kontsertlar yozganmi?

Topshiriqlar:

1. Ustozingiz topshirig‘iga binoan, 21–25- darslarda o‘rganish uchun tanlangan asarlarni uyda tahlil qilib, notadan chaling. Oraliq nazorat sinovlarida chalinadiganini yodlang.

2. 2- semestrning 17- darsidan so‘ng berilgan testlardan 41-60-savollarini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: nota matni tahlili, “o‘qish” (chitka), talqin

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”, o‘quv qo‘llanma. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarinig asarlari. Turli yillar nashrlari.

3. Черни К. “Избранные этюды”, Москва, 1986.

4. Bax I.S. Invensiyalar. Turli yil nashrlari.

26- DARS. 2- SEMESTR ORALIQ NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI SAHNADA TAYYORLASH VA TOPSHIRISH

2-s emestrning 18–26- darslarida Oraliq nazorat (ON) dasturiga kiritilgan asarlarni mukammal o‘zlashtirdingiz. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Mahoratingiz ijobiy baholangandagina siz mazkur joriy semestrning, qolaversa 1-kursning oxirgi Yakuniy nazorati (YaN) dasturlarini xotirjamlik bilan o‘rganishga kirishasiz. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

27–30- DARSLAR. AMALIY IJROCHILIK MASHG‘ULOTLARI

1. Darslik ilovasidagi gamma, akkord va arpedjiolarni sinfda ustozingiz nazorati ostida chaling.
2. Quyidagi kuylarni sinfda notadan o‘qing.

Kuy

G.Teleman



Polonez

L.Mosart



Vals

S.Maykapar









O‘rmonda tun

A.Gedike

Moderato







Savollar:

1. C.Raxmaninov nechta fortepiano konsertlari yaratgan?
2. I.S.Baxning «Mukammal temperatsiyalangan klavir»i 1-qismida qaysi fuga yagona 2 ovozli?
3. Klavir uchun syuitalarda raqslarning an'anaviy birin-ketinligini bilasizmi?

Topshiriqlar:

1. Ustozingiz topshirig'iga binoan, 27–30- darslarda o'rganish uchun tanlangan asarlarni uyda tahlil qilib, notadan chaling. Yakuniy nazorat sinovlarida chalinadiganini yodlang.
2. 2- semestrning 17- darsidan so'ng berilgan testlardan 61–70- savollarini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: polonez, vals, mukammal temperatsiyalangan klavir, klavir uchun syuitalar

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Djamalova D., Utayeva N. “Fortepiano olamiga ilk qadamlar”. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. “Школа игры на фортепиано”.Издательство “Музыка”, Москва, 1975.

3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “O‘qituvchi”, - T., 1987.

4. Hayitboyeva D. Notani varoqdan o‘qish va fortepiano ansambli. – T, “Uzbekiston”, 2010.

5. Ташпулатова Д. Работа над этюдами Г.Мушеля в фортепианном классе. -Т., «Узбекистан». 2011.

6. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

31–33- DARSLAR. AMALIY IJROCHILIK MASHG‘ULOTLARI

Jo‘rnavozlik va ansamblda ijro

Musiqiy ijro etish jo‘rnavozlik va ansamblga bo‘lib chalish ko‘nikmalarini, improvizatsiya esa – klassik va jaz yo‘nalishida mavjud bo‘lgan garmoniyadagi bilimlarning amaliy qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi. Ansambl ijrochiligi Fortepiano fanining maxsus ta’lim bo‘limi. Ansamblda (bir xildagi yoki turli xildagi) ijro etish talabalarda:

- musiqiy negizning ko‘p qirraligini tushunishida;
- hamkorlikda ijod qilish tushunchalarini egallashda;
- badiiy dunyoqarashning real eshitish bilan bir-biriga bog‘lanilishida yordam beradi.

Jo‘rnavozlik ko‘nikmalari

Jo‘rnavozlikni o‘rganish, tinglashni va yakkanavoz cholg‘u yoki yakkaxon ovozga bo‘ysinish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Yengillatilgan matnlarning, dinamikalarining, pedalizatsiyaning va ularning jo‘rnavozlikdagi ahamiyatga ega bo‘lishi bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Hamkorlikda ijro etish ko‘nikmasi har bir mutaxassislikdagi musiqachi uchun zarur.

Variatsiya mavzusi
(parcha)

V.A.Mosart







Polka

A.Borodin





Kuy
(L.Betxovenning 7- simfoniyasidan parcha)







Turna

(Ukrain xalq qo‘shig‘i)





Ariya Papageno

“Sehrli nay” operasidan parcha

V.A.Mosart

Moderato-Xotirjam





Ijro malakasini rivojlantirish

Mashg‘ulotlarda talabalarning texnik mukammalligining oshirilishiga muhim e’tibor qaratiladi. Shuning uchun o‘qitish dasturiga instruktiv asarlar – mashqlar, etyudlar, virtuoz kuylar kiritilgan.

Siz talabalarda umummusiqiy tushunchalaringizni kengaytirishingiz lozim. Bu sohada yig‘ilgan natijalar notadan o‘qish, tinglab chalib berish, transportlash, musiqiy ijro etish o‘ta muhimdir.

Notaga qarab o‘qish ijro malakasi

Notadan o‘qish – bilim va mahoratni o‘z ichiga oladigan yaxlit tizim bo‘lib, ularga vizual tarbiya, tinglab tushuna bilish va harakat davomida notani tezlik bilan kuzata bilish ko‘nikmalari kiradi. Tinglab chalish – musiqiy slux va harakatdagi slux tushunchalaridan tashkil topadi. Transportlash – harakatdagi slux va lad-tonal munosabatlarning o‘zaro mustahkam bog‘liqligini talab etadi.

Andijon polkasi

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan




2.
1.
2.



Yurish marshi

Fattoh Nazarov



Chitti gul

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan





Do‘loncha

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

Allegro



Chertmak

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan



Yallama yorim

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan



Navro‘z raqsi

D.Omonullayeva



Olmacha anor

Nadim Norxo‘jayev
fortepiano uchun moslashtirgan



Asp bo‘laman

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan



Qashqarcha

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan





Più mosso





Paxta raqsi

Sonya Abramova

Allegro moderato









Nizon gul

D.Omonullayeva



Marsh

D.Omonullayeva



Bahor valsi

M.Mirzayev




f
f
dim.



Qari navo

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

Moderato





Qashqarcha

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan

Andantino













Usmoniya

O‘zbek xalq kuyi

Tempo di marshe







Jamalagim

Doni Zokirov
fortepiano uchun moslashtirgan





Chaman ichra

Xolmirza Azimov fortepiano uchun moslashtirgan




mp
mf
mf



Olma pishganda keling

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan









Buxorcha

Nadim Norxo‘jayev
fortepiano uchun moslashtirgan








p
p
ff

Namanganning olmasi

Habibullo Rahimov
fortepiano uchun moslashtirgan



Savollar:

1. O‘zbek xalq ohanglari asosida ko‘plab kuylar yaratgan O‘zbekiston kompozitori Habibullo Rahimov haqida nimalarni bilasiz?

2. O‘zbek xalq ohanglari asosida kuylar yaratgan taniqli kompozitor Nadim Norxo‘jayev qaysi janrlarda asarlar yaratib shuhrat qozongan?

Topshiriqlar:

1. Ustozingiz topshirig‘iga binoan, 31–33- darslarda o‘rganish uchun tanlangan asarlarni uyda tahlil qilib, notadan chaling. Yakuniy nazorat sinovlarida chalinadiganini yodlang.

2. 2- semestrning 17- darsidan so‘ng berilgan testlardan 71–85- larini yeching, savollarga javoblarni ARMda mavjud kitoblardan yoki axborot tarmoqlaridan toping.

Tayanch iboralar: jo‘rnavozlik va ansamblda ijro, yakkanavoz, notadan o‘qish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari. “Yangi asr avlodi”, -T., 2004.

2. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.

34- DARS. 2-SEMESTR YAKUNIY NAZORATI UCHUN IJRO DASTURINI SAHNADA TAYYORLASH VA TOPSHIRISH

2- semestrning 17- haftasi mobaynida Yakuniy nazorat (YaN) dasturiga kiritilgan asarlarni ham mukammal o‘zlashtirdingiz. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Etyudlar va turli janrlardagi asarlarni ijrosini me’yoriga yetkazib, asarlar mazmunini tinglovchiga singdira olsangizgina mahoratingiz ijobiy baholanadi. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

O‘quv rejadagi barcha fanlarni topshirsangizgina, keyingi semestrda, ya’ni 2- kursda o‘qishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hech qachon esingizdan chiqmasin!

XULOSA

Aziz talabalar! Siz O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5150600 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) va 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining 1-kursida tahsil olayotgan sizdar uchun mo‘ljallangan ushbu “Fortepiano” darsligidan ham kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ldingiz. Zaruriy bilimlar majmuasi shu ixtisoslikning ta’lim dasturlarida o‘z aksini topgan, albatta.

Yangi asr boshidan shogirdlar yetishtirishga kirishgan bir mutaxassis sifatida, yillar mobaynida qo‘llab kelayotgan pedagogik tajribamni mazkur darslikka mujassam qildik. 2-kursda tahsil olishni boshlayotgan bir talabani o‘qitishda qo‘llanilayotgan uslubiyatning 1 varianti ekan, deb qabul qilishingiz lozim. Ishonch bilan ta’kidlashim joizki, o‘zi cholg‘uni yaxshi chala olmaydigan ustoz shogirdlarini bu ijrochilik san’ati turiga talablar darajasida o‘rgata olmaydi.

Musiqachilar imkon qadar barcha ijod yo‘nalishlarida yaratilgan, jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining eng sara asarlari bilan o‘z konsert-pedagogik repertuarini muntazam boyitib borishlari zarur. Aks holda zamondan orqada qolishi mumkin. Bu nimalarda namoyon bo‘ladi? Avvalam bor sozanda sifatida o‘smaydi, kontsertlar bera olmaydi, ilg‘or hamkasblaridan uyalib, yil sayin, kun sayin qaynoq musiqiy hayotdan chetlasha boradi. Qolaversa, dars berayotgan pedagog esa barcha shogirdlar uchun bir xil repertuar, ya’ni bilganini o‘rgatadigan bo‘lib qoladi. Bundaylar musiqa san’atimiz rivojiga foyda emas, balki zarar keltiruvchi bo‘lib qolganliklarini o‘zlari ham bilmay qoladilar.

Siz yuqori kurslarda tahsil olganingizda ham ko‘plab asarlarni chalasiz. U asarlarning mualliflari ham turli zamonlarda yashagan kompozitorlar bo‘lishadi, albatta. Qancha-qancha kompozitorlar yashab o‘tgan bo‘lsa, hozirda yashab ijod qilayotgan bo‘lsa, ijodda ular hech qachon bir-birlariga o‘xshamagan, bundan keyin ham o‘xshamaydilar.

Musiqachi uchun bir baxt alohida e’tiborga loyiq, ya’ni zamondosh, shaxsan taniydigan, yashab ijod qilayotgan kompozitor yangi asarining ilk ijrochisi bo‘lish! Kompozitor yosh bo‘lishi mumkin, o‘rta yoki keksa yoshda bo‘lishi mumkin. Yaratgan asarlari yuksak badiiy talablarga javob bersa, keng tarqalsa, ularning nomlari musiqa tarixi sahifalaridan albatta o‘rin oladi.

Dunyoning ishlari qiziq! Birgina ijodkorning asarini ijro etib ham, dunyoga tanilish mumkin yoki bir sozanda qaysidir asarni me’yoriga yetkazib ijro etib, ijodkorini osmonlarga ko‘tarishi mumkin. Shunday ijodkor inson baxti sizlarga ham nasib etsin!

GLOSSARIY

Akkord (it. Accordo, fr. Accord – birdamlik)– turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord, odatda, tersiya intervali bo‘yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo‘ladi. To‘rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undestimakkord deyiladi.

Ansambl (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir necha san’atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo‘lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – duet, uch ijrochi – trio yoki terstet, to‘rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, etti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ba’zan ansambl so‘zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

Applikatura (nem. Applicatur - qo‘ymoq, bosmoq) – musiqa cholg‘u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda ko‘rsatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo‘yiladi.

Diapazon (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg‘u asbobining tovush hajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig‘i.

Diatonika (yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o‘tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy major, minor va o‘rta asr ladlari uchun asos bo‘lgan asosiy yetti pog‘onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

Diatonik gamma – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada yettita tovush bo‘ladi.

Dinamika (yun. Dinamikos - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya’ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta’kidlab eshittirish kabilarni bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

Interval (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o‘rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa, garmonik interval, birin-ketin yangrasa, – melodik interval, deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, terstiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

Lad – turg‘un va noturg‘un musiqiy tovush pog‘onalarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog‘onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

Partiya (musiqada) – 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozistiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

Registr (lot. Registrum – ro‘yxat, yozib, qo‘yish) – musiqiy mato ohangini yuqori, o‘rta va pastki qismlarga mansubligi bo‘yicha ajratish.

Tembr (fr. tembre – qo‘niroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg‘u yoki xonanda ovozining o‘ziga xos tovush xarakteri. Cholg‘u asbobining tuzilishi va shakliga ko‘ra uning tembri turlicha bo‘ladi.

Temperatsiya (lot. Temperatio – to‘g‘ri munosabatda, bir o‘lchamda) – musiqiy pog‘onalar oralig‘idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig‘ining teng 12 yarim tonga bo‘linishi bir tekis temperatsiya bo‘ladi.

Tovushqator – cholg‘u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo‘lgan tovushqator. U yuqori ko‘tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

Transpozitsiya (lot. Transponere – joyini o‘zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko‘chirish. Transpozistiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo‘lsa; bir cholg‘u asbobdan ikkinchisiga ko‘chirish zarurati bo‘lsa; yozilgan notalar o‘qish uchun noqulay bo‘lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozitsiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o‘zgarmaydi.

